FOLKLORISM IN OMON MUKHTOR'S NOVEL “AFLATUN”
OMON MUXTOR “AFLOTUN” ROMANIDA FOLKLORIZM
ФОЛЬКЛОРИЗМ В РОМАНЕ ОМОНА МУХТАРА “АФЛОТУН”

Xo‘jamqulov Anvar Jozilovich[1], Tog‘ayeva Shoxnoza Elmurod qizi[2]
[1]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), e-mail: xojamqulovanvar@gmail.com,
[2]“Japan international school” o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi,
e-mail: shaxnozatogayeva25@gmail.com,

Abstract. This article examines folklore and folk oral traditions in the novel “Aflatun” by Omon Mukhtor, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. The presence of oral folk art in written literature is a natural phenomenon. This is especially evident in poetry. However, the article reveals that folklore plays a significant role not only in Omon Mukhtor's poetic works but also in his prose writings.

Keywords: folklore, folklorism, novel, legend, tale, fairy tale, contrast, epigraph, modern literature.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek modern adabiyotining yirik namoyondalaridan biri – yozuvchi Omon Muxtorning “Aflotun” romanida folklorizm, xalq og‘zaki ijodi an’analari xususida so‘z boradi. Badiiy adabiyotning yozma shaklida xalq og‘zaki ijodining bo‘y ko‘rsatishi tabiiy holdir. Bu, ayniqsa, she’riyatda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Biroq Omon Muxtorning she’riy asarlaridan tashqari nasriy asarlarida ham folklorizmning o‘rni yuqori ekanligi maqolada ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, folklorizm, roman, afsona, rivoyat, ertak, kontrast, epigraf, zamonaviy adabiyot.

Аннотатsия. В данной статье рассматривается фольклоризм и традиции устного народного творчества в романе “Афлотун” (“Платон”) одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы – писателя Омона Мухтора. Проявление устного народного творчества в письменной форме художественной литературы является естественным явлением. Это особенно ярко выражено в поэзии. Однако в статье раскрывается, что помимо поэтических произведений Омона Мухтора, значительная роль фольклоризма наблюдается и в его прозаических произведениях.

Ключевые слова: фольклор, фольклоризм, роман, легенда, предание, сказка, контраст, эпиграф, современная литература.

Kirish. Ijodkor o‘zlikni anglash yo‘lida o‘zi yashab turgan davr hayoti bilan birga o‘tmish, tarixiy voqealar, qadriyatlar, bir so‘z bilan aytganda, folklor an’analariga ham murojaat qilishi mumkin. Shu tarzda xalq og‘zaki ijodi asrlar osha yozma adabiyot uchun ma’naviy manba vazifasini o‘tab, uni rivojlantirib kelmoqda. Shu bilan birga, ularni farqlovchi xususiyatlar ham bisyor.

Ko‘pincha asar ruhi tushunchasini unga ma’lum darajada yaqin keluvchi pafos istilohiga almashtirib qo‘llanilishi ko‘zga tashlanadi. Ya’ni ikki ijodkor: xalq va yozuvchi(shoir); ikki ijod: folklor asari va individual adabiy asar qiyoslash mumkin bo‘lgan o‘rinda, avvalo, badiiy asar uchun asosiy va ustuvor belgi pafos masalalasiga diqqat qaratilmog‘i o‘rinlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus tanqidchisi V.G.Belinskiy: “Har qanday yaratiqning badiiy asar deyilmog‘i uchun uning pafosga ega bo‘lishi asosiy mezondir, qolgan barcha adabiy elementlar uning to‘laqonli chiqishi uchun xizmat qiladi”, – deydi [2; 271]. Ya’ni asar mavzusi va kompozitsiyasi, adabiy qahramon, badiiy vositalar – barcha-barcha badiiy unsurlar pafosni yuzaga keltiradi. Folklorda esa ushbu vazifani sayyor sujetlar, motiv, mifologik tasavvur, an’anaviy qoliplar va qahramonlar bajarib kelgan bo‘lib, ularning mumtoz adabiyotdayoq badiiy asarlarga kirib kelganligi ko‘zga tashlanadi.

Og‘zaki adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari haqida Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida shunday deydi: “Yozma adabiyot, el adabiyoti deb adabiyotni ikiga ajratadirlar... Bu iki turli adabiyot orasidag‘i farqni yozmoq, yozilmag‘anliqda yoki egasining belgili-belgisiz bo‘lg‘anida ko‘rmak yanglishdir. Shunday bo‘lsa ham bizning san’atkor adabiyotimizga qarshi o‘zining samimiyligi, soddaligi bilan o‘z borlig‘ini saqlab kelgan bir adabiyotning borligi-da ma’lumdir. Biroq buning ayirmasi yozma bo‘lmasligida, yo egasining ma’lum emasligida emas, o‘zining ruhidadir...

Bundag‘i ifoda, uslub, o‘xshatishlar, sifatlashlar, majozlar, istioralar, qaynashlar hammasi elniki, el tushunishiga mos keltirilgandir” [1; 336]. Ko‘rinadiki, Fitrat yozma adabiyot va folklor asarlardagi eng asosiy farqni ularning ruhida deb biladi.

Shu o‘rinda folklor asarlarning individual ijodkorga ta’siri borasidagi quyidagi fikrlar ham diqqatni tortadi: “Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi tajribalari, undagi rang-barang sujet va motivlar yozuvchi g‘oyaviy niyatining badiiy mujassamlanishida ijodiy laboratoriya vazifasini o‘tamog‘i kerak, aks holda yozuvchi folklor asarlarining oddiy taqlidchisi bo‘lib qoladi...

Folklor motivlaridan foydalanish, undagi tasvir usuli, poetik elementlardan ijodiy o‘rganish, unga taqlid qilish, nusxa ko‘chirish, folklor elementlarini sun’iy o‘zlashtirish degan gap emas, albatta. Haqiqiy san’atkor realistik tasvir usulining keng imkoniyatlarini namoyish etgan holda undagi barcha badiiy xususiyatlarni o‘z

ijodiga tatbiq qiladi, uning yangi qirralarini ochadi, o‘z ijodiy fantaziyasini boyitadi” [5; 20]. Biz adabiyotshunos G‘.Mo‘minov tomonidan keltirilgan ushbu qaydlardagi xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyot uchun ijodiy laboratoriya bo‘lib kelishini e’tirof etgan holda olimning taqlidchilik haqidagi qarashlari biroz bahstalab ekanligini ta’kidlaymiz. Zero, adabiy an’analar sirasida folklor asarlarga ergashish nihoyatda keng qamrovli hamda ma’lum tamoyillarga bo‘ysunmasligi bilan o‘ziga xos bo‘lib, har bir ijodkor unga o‘z bilganicha yondashishi mumkin. Hatto ular to‘lasincha folklor sujetini o‘zlashtirsa ham (Shuhratning “Mardlik afsonasi” balladasi, Mirkarim Osim “To‘maris”, “Shiroq” qissalari); folklor qahramonlarini o‘z asarlariga kiritsa ham (Hamid Olimjon “Semurg‘, Parizod va Bunyod” dostoni, G‘afur G‘ulomning “Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi” hikoyasi) yoki ma’lum folklor asarlari kompozitson tuzilishidagi yangi bir asarlar yaratsa ham (Usmon Azim “Baxshiyona” turkumi) negadir ular uchun taqlidchilik qusurini taqash noo‘rindek tuyulaveradi. Bu esa yozma adabiyotdagi folklor an’analari keng ko‘lamli tadqiqotlar doirasida davomli tarzda o‘rganiladigan masalalardan ekanligini anglatadi.

Ayniqsa, bugungi zamonaviy nasrda xalq mifologiyasinining ta’siri ko‘zga tashlanadi. Adabiyotshunos L.Sharipovaning fikricha: “Dunyoning aksariyat xalqlarida dastlab mifologiya paydo bo‘lib, so‘ng mifologiyaga xos motiv, obrazlar olami, voqelik kabilar xalq og‘zaki ijodining paydo bo‘lishiga zamin bo‘ldi. Ayni damda, folklor yozma adabiyot yuzaga kelishida muhim rol o‘ynadi” [9; 23]. Umuman olganda, folklor faqat mifdan iborat emas. Biroq: “Adabiyotning boshi ham, oxiri ham mifdan iborat” [3; 608], – deb ta’kidlovchilar ham bor. Lotin Amerikalik yozuvchi Xorhye Borxes fikrlariga yondosh tarzda adabiyotshunos olima Sh.Doniyorova ham quyidagilarni qayd etadi: “Darhaqiqat, yozma adabiyotning folklor orqali mifologik tafakkur chashmalariga borib taqalishi juda ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan yakdillik bilan e’tirof etilgan. Xalq og‘zaki ijodining ilk sarchashmalari esa qadimgi odamning olam haqidagi eng ko‘hna tasavvurlari majmuyi, ya’ni mifologik qarashlar tizimidan oziqlangan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri jarayonida qadimiy mifologik personajlar, sujet va motivlar tizimining muayyan bir qatlami yozma adabiyotga singib ketib, an’anaviy poetik timsollar va sujet elementlariga aylangan. Yozma adabiyotdagi ana shu qadimiy an’ana bugungi kunga qadar takomillashib, boyib kelmoqda” [4; 64].

Muhokama. Yozuvchi Omon Muxtorning noan’anaviy romanlarida tarixiy voqealar bayon qilingan, xalq og‘zaki poetik ijodi ruhi bilan sug‘orilgan, o‘quvchini folklor olamiga yetaklaydigan o‘rinlar ko‘p uchraydi. “Omon Muxtor asarlarini o‘qish jarayonida bugungi inson ruhiyatining yangidan yangi qirralarini inkishof etish maqsadida xalqimizning mifologik tasavvurlaridan ham samarali foydalanganligini ko‘ramiz. Adib asarlarida oddiy rivoyat va afsonalar bilan birga, xalq ertaklarining

an’anaviy motivlari hamda qadimiy qo‘shiqlarga ham ancha keng o‘rin berilgan” [4; 64]. Yozuvchi ijodi haqida so‘z borganda, uning zamonaviy jahon adabiyoti tendensiyalarini milliy adabiyotimizda davom ettirganligi bilan bir qatorda mahalliy muhit koloritini bera olganligi, uning o‘tmishi va bugunini folklor an’analari asosida tasvirlay olganini ham ta’kidlash joiz. Adabiyotshunos D.Quronov bu haqida: “Adib (Omon Muxtor – A.X.) milliy folklor, diniy rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotiga xos norealistik usullarni asos qilib oladi-da, ularni modern usullari bilan boyitadi, natijada ular milliy adabiy zaminning o‘zidan o‘sib chiqqandek, sof milliy estetik hodisadek taassurot qoldiradi” [6; 228], – deydi.

Badiiy adabiyotning yozma shaklida xalq og‘zaki ijodining bo‘y ko‘rsatishi tabiiy holdir. Bu, ayniqsa, she’riyatda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Omon Muxtorning nafaqat nosir, ayni damda, shoir ekanligini inobatga olib, aytish mumkinki, adibning nasriy asarlarida ham folklorizmning o‘rni beqiyos.

Ijodiy faoliyati davomida folklorga murojaat qilmaydigan ijodkorni topish qiyin, albatta. Folklordan sezilarli darajada ta’sirlanish, foydalanish ko‘rinib tursa, bu hol uslubning bir qirrasiga aylanadi. Demakki, folklorning bir davr yoki bir ijodkor ijodiga jiddiy ta’siri uning uslubida o‘z ifodasini topadi.

Folklorning badiiy ijodga ta’siri haqida so‘z borar ekan, uning nafaqat she’riyatga, balki badiiy adabiyotning boshqa turlarida yaratilgan ijod namunalariga ham ta’siri ijodkor uslubining yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash joiz. Ijodida folklor an’analaridan foydalanish yozuvchining xususiy uslubidan dalolat bersa, muayyan bir davrga xos umumiy uslubda bir qancha ijodkorlar uslubidagi o‘xshashliklar, umumiyliklar kuzatiladi.

Adabiyotshunos olima L.Sharipova folklorga xos badiiy uslubning yozma adabiyotga ko‘chishini ijobiy baholaydi. Uning fikricha: “Uslub bir ijodkorni ikkinchi ijodkordan farqlaydigan xususiylikdir. O‘z uslubiga ega qalam ahligina adabiyotning boqiy olamiga doxil sanaladi. O‘ziga xoslik she’riyatni jilolantirib, so‘z mulkini yakranglikdan saqlaydi. Uslubdagi o‘ziga xosliklardan biri folklordan foydalanishda ko‘rinishi mumkin” [8; 48]. L.Sharipova, asosan, she’riyat va unda folklorning aks etishi bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratib, jumladan, ushbu turda ijod qilayotgan shoirlarni asarlarida folklorning ta’siri nuqtayi nazaridan to‘rt guruhga tasniflaydi:

1. Ijodida doimiy tarzda folklorga xos ohang, obraz, badiiy tasvir vositalaridan foydalanadigan shoirlar. G‘afur G‘ulom, Mirtemir, A.Oripov, O.Hojiyeva, Sadriddin Salim Buxoriy, Yo‘ldosh Eshbek, Muhammad Yusuf, Rustam Musurmon kabi shoirlar ijodi fikrimizni dalillaydi.

2. Folklorga xos ohang, obraz, ifoda vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda og‘zaki adabiyotga mansub janr, sujet, motiv kabilarga qayta-qayta murojaat qilgan, hatto yangi shakllar yaratgan shoirlar. To‘ra Sulaymon, Omon Matjon,

H.Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Xurshid Davron, Azim Suyun kabi shoirlar ijodi orqali fikrimizga misollar keltirishimiz mumkin.

3. Folklor va mumtoz she'riyatga xos ma'lum xususiyatlarni bir vaqtda mutanosib tarzda ifoda etish orqali uslubida o'ziga xos jihat bo'rtib turgan shoirlar. Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin, H.Ahmedova, Z.Mirzayeva kabilar ijodi bunga misoldir.

4. Folklorga xos satira va yumor ijodida bo'rtib turganidan hajv uslubining bir qirrasiga aylangan, xalqona kulgini, kinoyani o'z she'riyatiga singdirib yuborgan shoirlar. E.Vohidov, Anvar Obidjon, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijodi dalildir. Har bir guruhga mansub shoirlar folklorning qaysi jihatidan qay yo'sinda foydalanganiga ko'ra uslublarida o'ziga xoslik kasb etishgan [8; 49].

Olimaning ushbu tasnifiga, albatta, nisbiy tarzda qarash lozim. Negaki unda xalq og'zaki ijodi asarlari sujetlari asosida dostonlar yaratgan Hamid Olimjon ("Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg', Parizod va Bunyod"), jahon eposi asosida she'riy turkum yaratgan Muhammad Ali ("Ramayana ohanglarida") rivoyat va afsonalarni sujetlarini voqeabandlik uchun asos qilgan Xurshid Davron ("Vatan haqida yetti rivoyat"), qadimiy qo'shiqlar ohangini, mifologik tasavvurlarni dostoni, she'rlari ruhiga singdirgan Faxriyor ("Ayolg'u") kabi yana ko'plab shoirlar ijodini ham qayd etish mumkin. Zero, she'riyatiga xalq og'zaki ijodining ta'siri bo'lmagan biror bir shoir yo'qdir. Shuningdek, folklorning o'zbek nasridagi ifodasi ham nihoyatda keng qamrovli ekanligi va u har bir yozuvchi ijodida qaysidir ma'noda aksini topganligi ko'zga tashlanadi.

Omon Muxtorning yana bir asari "Aflotun" romanida ham folklor motivlari bo'y ko'rsatgan o'rinlar talaygina. Asarning nomi ko'pchilikni uni mutolaa qilishdan avval qadimgi yunonlar imperiyasi davrida ro'y bergan voqealar uning mazmunini tashkil etishini taxmin qilishga undaydi. Hatto asarning Suqrot bilan bog'liq epigrafi hamda "Arafa" deb nomlangan muqaddimasida keltirilgan hikoyalar shundan dalolat beradi. Biroq keyingi qismlardagi voqealar Omon Muxtor individual uslubiga xos tarzda turli makon va zamonlarda, masalan, xonliklar davri, jadidlar harakati va bugungi davr voqealari, Buxoro, Toshkent, Samarqand hamda boshqa manzil-makonlar, hattoki yer ostidagi zulmat shahar va nurafshon shaharlarda ro'y beradi. Asar miloddan avvalgi 399-yilda bir oydan beri zindonda qatl etilishini kutib yotgan 71 yoshli donishmand-faylasuf Suqrot va uning do'sti Kriton o'rtasidagi dialog-suhbat bilan boshlanadi. Ushbu dialog shakli o'quvchining xotirasida yozuvchining "Tepalikdagi xaroba" romanidagi singari dramatik turga o'xshash shakliy uslubni jonlantiradi:

"*Miloddan oldingi 399-yil. Zindon.*

Suqrot. Sen tovuqlar qo'ndoqdan tushmay, nima qilib yuribsan, Kriton?! Yoki vaqt erta emasmi?!

Kriton. Juda erta.

Suqrot. Hozir qaysi palla?!

Kriton. Kun endi yorishyapti.

Suqrot. Bu, qo‘riqchi seni qanday ichkariga qo‘yganiga tushunmayapman.

Kriton. U meni yaxshi biladi, Suqrot, chunki men bu yerga bot-bot kelib turaman. Buning ustiga, men uni har holda, rozi ham qildim.

Suqrot. Sen yangi keldingmi yoki ancha bo‘ldimi?

Kriton. Ancha bo‘ldi.

Suqrot. Mening yonimda xayol surib o‘tirmay, nega meni darhol uyg‘otmading?!

Kriton. Tangrining o‘zi asrasin, Suqrot! Men o‘zim, butun baxtiqarolik yetmagandek, senga uyqudan ham qolishni ravo ko‘rmayman. Ana, kelib, sening shirin uxlayotganingni ko‘rib, ajablanib, mayli, orom olsin, degan o‘y bilan, atayin seni uyg‘otmay turgan edim...” [10; 100]

Romanning bu tarzda, ya’ni an’anaviy romanlarga xos biror-bir voqelik yoki manzara tasviri bilan emas, balki darhol dialog bilan boshlanishi, yuqorida qayd etganimizdek, o‘quvchida go‘yoki dramatik asar o‘qiyotgandek taassurot uyg‘otadi. Asardan odatiy sujet unsurlarini topish qiyin. Kompozitsiyasi ham boshqa an’anaviy romanlardan ajralib turadi, hajmi mo‘jazgina – 74 sahifa. An’anaviy romanlarga ko‘nikkan o‘quvchi bu asarni hajmiga qarab qissa yoki kattaroq hikoya deyishi mumkin. Omon Muxtor romanlarining aksariyati kichik hajmli – yuz betdan nari-beri. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, bu kabi romanlar noan’anaviy romanlardir. Ammo janrning noan’anaviyligi faqat uning hajmiga ko‘ra ham belgilanmaydi. Chunonchi, adabiyotshunos D.Quronov XX asrning so‘nggi yillarida badiiy izlanishlar natijasi o‘laroq bir necha romanlar yuzaga kelganligini ta’kidlar ekan, bunday yaratiqlarning “an’anaviy roman”lardan keskin farq etishini, shu bois ularga nisbatan “modernistik roman” istilohini qo‘llash zarurati yuzaga kelganligini qayd etadi hamda ulardagi hayot va xayolot qorishib ketishi (“Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”), ramziy majoziy ifodaning ustunligi (“Bozor”), zamon va makon tushunchasidagi shartlilik (“Isyon va itoat”), ikki turli makon va zamonda kechuvchi fragmentlardan bir butunlik hosil qilinishi (“Boqiy darbadar”) kabi xususiyatlarni “realistik tendensiyalar kuchliligidan haqiqatga monand manzaralar tasvirlangan” [7; 14] an’anaviy romanlardan farqlantirib turuvchi alomatlar ekanligini aytadi. Ushbu mavzudagi boshqa bir tadqiqotda esa “O.Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Aflotun”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, kabi romanlarida falsafiy mushohada, “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi xaroba”da psixologik tahlil, T.Rustamning “Kapalaklar o‘yini”da absurd g‘oya” [15; 1] ularning noan’anaviyliyligini namoyon etuvchi xususiyatlar ekanligi qayd etiladi. E’tibor berilsa, yuqorida sanalgan ko‘pgina o‘ziga xosliklarlar, ya’ni hajman ixchamlik, ramziylik, xayoliylik, falsafiy mushohadakorlik, psixologizm aslida

an’anaviy romanlarda ham mavjud bo‘lib, faqatgina ustuvor jihatlar sifatida bo‘rtib ko‘rinmay kelganligi ayonlashadi. Demak, barcha noan’anaviy tushunchalar kabi badiiy adabiyotdagi noan’anaviylik uchun ham ma’lum bir qoida-tamoyillar belgilanmagan. Xususan, romanga noana’anaviy deya qaralishi barcha an’anaviy romanlardagi “yirik hajmli voqeband asar”, “ko‘p planli murakkab sujet”, “hayotni keng ko‘lamda tasvirlash”, “murakkab obrazlar sistemasini tashkil etuvchi ko‘p sonli personajlar”, “qahramon hayotining katta bir davrini qalamga olish” [7; 9] kabi belgilarning yetakchi emasligi, ba’zan mavjud bo‘lmasligida desak, to‘g‘riroqdir.

Umuman olganda, adabiyotshunosligimizda badiiy asarlarga nisbatan o‘tgan asrning 80-yillaridan buyon qo‘llanilib kelinayotgan noan’anaviylik tushunchasini mohiyatan mushohada etsak, mavzu modernizm, postmodernizmga borib taqaladi. Shu jumladan, Omon Muxtor romanlarida ham postmodernizmning intermatnlik, rizoma, tagma’nolilik, kinoyaviylik va boshqa shu kabi muhim xususiyatlari o‘z ifodasini topganki, tahlil va talqinlarda shu nuqtayi nazar bilan yondashilsa, ularni mohiyatan anglash birmuncha osonroq bo‘ladi. Shuningdek, adib romanlaridagi mifopoetika, pessimistik psixologizm, ramziy ironiya ham ularning postmodernizm uslubidagi asarlar ekanligidan dalolat beradi.

Xususan, adibning “Aflotun” romani folklor asarlaridagi an’anaviy uydirmalar va zamonaviy psixologizm, fantastikaning uyg‘unligidan yuzaga kelgan bo‘lib, transrealistik uslubni namoyon etadi. Asar boshidagi Suqrotning tushiga kirgan ayol – xalq og‘zaki ijodida uchraydigan obraz: oq kiygan, nihoyatda ko‘rkam, ulug‘vor bir ayol. Odatda, tush motivida uchraydigan mazkur obraz pariga tamsil qilinadi. Shuningdek, Suqrot o‘zining eng sevimli shogirdi Aflotun bilan ham tushida tanishadi. Ushbu holat o‘quvchiga “Alpomish” dostonidagi Alpomish va Qorajonning tush orqali bir-biri bilan tanishib, do‘st tutinishi voqeasi eslatadi. Romanda xalq dostonlaridagi kabi dialektizmlardan foydalanish ham kuzatiladi: “Axir, sen o‘limga yuz tutsang, men **sho‘rish**, malomatlarga qolishimni o‘yla!” [10; 102]. Ushbu so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Sho‘rish (forscha – tuzi ko‘plik, sho‘rlanganlik; tug‘yon, hayajon; qo‘zg‘olon, isyon) 1. Savdo; 2. Yomon ish; janjal, g‘avg‘o” [12; 13], – degan ma’nolarni bildirishi qayd qilingan.

Roman “Odamlar va soyalar”, “Begona hayot”, “Muhabbatning saroyi” va “Dunyo tasodiflarga to‘la” deb nomlangan to‘rtta qismdan iborat. Har bir qismda asarning turli zamon va makondagi voqealar markazida turuvchi qahramon – Usmonning kimnidir yoki nimanidir qidirib yo‘lga chiqishi hikoya qilinadi. Birinchi qismda Ruxsora ismli qizni izlab yo‘lga chiqqan bo‘lsa, ikkinchi qismda Rauf, uchinchi qismda esa sirli sandiqni izlaydi. Izlaganlarini qismlar oxirida topadi, biroq topilmalar uni yuqorida aytib o‘tganimizdek, boshqa narsalarni qidirishga undaydi. Ushbu voqealar tasviri folklorning ertak janrlarda kuzatiladigan jumboq motivini

esga soladi. Ertak-topishmoqlarda uchraydigan sujet liniyasi bilan o‘xshashlik yuzaga kelganligi ko‘zga tashlanadi.

Asar qahramoni Usmon har gal safarini: “Chu, tulporim, yollari oltin, Chu, qaydasan, baxtli manzilim?!” [10; 107, 126, 165] – deya boshlaydi. Bu satrlar ertak va xalq dostonlarida bosh qahramonning safar oldidan yo‘lga otlanganida aytiladigan xalq qo‘shiqlariga monand kuylanadi. Romanda shu kabi folklor janrlari unsurlarini yodga soluvchi jihatlar ko‘p. Masalan,

“Bugun kelasizmi, yo
Kutayinmi ertaga?!
Indingami?! Undan so‘ng?!
Bu hafta kelmaysizmi?!
Kelmaysizmi o‘n besh kun?!
Bir oymi?! Undan ko‘proq?!
Ba’zan esa bunday:
Yuragimni bir o‘t taftalab,
Men ungami, o‘zimni tutdim?!
Sizni intiq kutdim Haftalab?
Oylab kutdim,
Yilma-yil kutdim” [10; 107].

Ushbu she’riy jumlalardagi vaqt o‘tishi (zamon) talqini folklordagi: “...oradan kunlar, kunlar ortidan haftalar, haftalarni quvlab oylar, oylar ketidan esa yillar o‘tibdi”, – degan darajalash uslubiga juda yaqin.

Cheksiz sahroda qum tepalardagi saksovul, yulg‘un, yuzgan, kovgar, yalpi qizarib yotgan tikan butalarini oralagancha, karvondagi boshqa odamlar qatori suvsirab, hol-madori qurib, quduq sari vazmin surilib borayotgan Usmonning holatini tasvirlar ekan, yozuvchi uning “og‘zidan nafas o‘rnida olov chiqmoqda” [10; 107] o‘xshatishini qo‘llaydi. Muallif xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydigan ajdar obrazi sifatiga xos bu o‘xshatish orqali o‘quvchiga Usmonning issiqdan nechog‘lik aziyat chekayotganligini tushuntirishga intiladi.

Voqealar rivojida karvondagilar nihoyat quduqqa yetib kelishadi. Quduqqa chelak tushirishadi, lekin u bo‘sh chiqadi. Bu hol bir necha bor takrorlanganidan keyin quduqqa odam tushirib ko‘rishga qaror qilishadi. Quduqqa tushirilgan odamning boshi kesilgan holatda jasadi chiqadi. Keyin ikkinchi odamni tushirishadi. Uning ham qilichmi, xanjarmi bilan tilkalab tashlangan jasadi chiqadi. Uchinchi odam ham tirik chiqmaydi. Ushbu voqea beixtiyor o‘quvchiga “Sirli tush” deb nomlangan o‘zbek xalq ertagi sujetini eslatadi [13; 75]. Ushbu ertakda ham xuddi shunday, ya’ni suv olib chiqish uchun quduqqa odamlarni tushirish va bu odamlarning jasadlari chiqishi sahnasi bor. Umuman olganda, romandagi ko‘pgina voqealar xalq og‘zaki ijodi janrlaridagi ko‘plab sujetlarga muvofiq keladi.

Quduq tubida yaltirab ko‘ringan narsa (mis tovoq), unda savol-javobga tutgan kimsalar (“Sirli tush”da ikkita dev) va quduq tubining yon tomonidan katta qopqaning ochilishi esa “Semurg‘” ertagidagi voqealarga o‘xshaydi: “G‘orni ko‘rsalar, yer ostiga qarab ketgan bo‘lib, chuqur emish. G‘orga katta akasi tushmoqchi bo‘libdi. Arqon bog‘lab tusha boshlabdi, yarmiga borganda “dod, arqonni tortinglar”, deb baqiribdi. Keyin o‘rtancha akasi arqonni bog‘lab, tusha boshlabdi. Yarmiga borganda chiday olmay, “dod, arqonni tortinglar”, deb qichqiribdi. Uni ham tortib olibdilar. Eng oxiri kenja botir o‘zini rostlab, dadillik bilan arqonni beliga mahkam bog‘labdi.

– Sizlar, arqonni mahkam ushlab turinglar, – deb g‘orga tushib ketibdi. Qarasa, g‘or qorong‘u, zimiston emish. Uzoqdan bir chiroqning yorug‘i ko‘rinibdi. Sekin-sekin yurib borib qarasa, bir uy, uyda bir qiz haligi yalmog‘iz kampirning boshini tizzasiga qo‘yib:

– Ha, men sizga aytgan edim, yer yuziga chiqavermang, kishilarning turmushiga zarar bermang, axir bir kun sizga qarshi kurashuvchilar chiqib qoladi, degandim. O‘z bilganingizdan qolmay, o‘zingizga o‘zingiz zomin bo‘ldingiz, – deb qayg‘urib turganmish” [14; 194].

Mazkur ertakda hikoya qilingan yer ostidagi shahar lavhasi “Aflotun” romanida ham kuzatiladi. Xuddi shunga o‘xshash yer ostidagi shahar makoni arab xalq ertaklari turkumi – “Ming bir kecha” tarkibidagi “Alovuddinning sehrli shamchirog‘i”da ham bor. Ertakda Alovuddin sehrli shamchiroqni olib chiqish uchun Soyalar shahriga yo‘l oladi. Qizig‘i shundaki, romandagi birinchi qismning “Odamlar va soyalar” deb nomlanishi ertakdagi Soyalar shahrining yana bir bor eslanishiga sabab bo‘ladi. Soyalar shahriga tushib qolgan Alovuddinning birorta kimsani uchratmay faqat zulmat ichra sargardon kezishi Usmonning quduq tubidagilardan Raufni topish topshirig‘ini olib, zulmat shaharda hech bir kishini uchratmay, sarson-sargardon daydib yurishi voqealariga ayni o‘xshashdir.

Usmon qidirayotgan Raufning kimligi dastavval o‘quvchida qiziqish uyg‘otsa, voqealar rivojida Rauf – bu o‘zbek xalqining buyuk farzandi, jadid harakati namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu qismda “Yosh buxoroliklar” harakatiga qo‘shilgan yoshlar, ularning asl g‘oyalari hikoya qilinadi. Romanda folklordagi kabi hikoya ichida hikoya usulidan ham samarali foydalanilgan. Fitrat va Fayzulla Xo‘ja, Usmonning do‘stlari – Roziq, Eshmat, Toshmatlar, tutingan uka-do‘sti Mahkamning bevaqt olamdan o‘tishi, otasi aka Said haqidagi va boshqa shu kabi hikoyalar asarning umumiy sujet liniyasi voqealarini ochib berishga xizmat qilgan.

Mahkamning janoza marosimidan ta’sirlanib aytilgan “Qirchillama qirqida qirqinidan qirqilgan” [10; 116] qo‘shig‘i folklorning lirik turiga mansub aza

qo‘shig‘idir. Bu qo‘shiq orqali o‘quvchi xalq urf-odatlari, turmush kechinmalarining badiiy ijodda aks etishiga guvoh bo‘ladi.

Ruxsorani izlab yo‘lga chiqqan Usmonning yo‘ldagi quduq voqeasidan keyin Rauf (Abdurauf Fitrat)ni izlab topishi kerakligi romanning “Begona hayot” deb nomlangan ikkinchi qismi voqealari mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, ushbu qismdan xonliklar davri voqealari – Amir Ahadxon, undan keyin Amir Olimxon, mang‘itlardan Muzaffarbek haqidagi hikoyalar ham joy olgan. Bu hikoyalar Abdurauf Fitrat ajdodlarining tarixini ochib berishga qaratilgan. Voqealar zanjiri Fitrat yashagan davrga ulanib ketadi. Abduraufning hayoti, siyosiy faoliyati, ruslar bosqini, hukumat tepasiga bolsheviklarning kelishi, milliy istiqlol harakatining yuzaga kelishi, ozodlik, hurlik uchun kurashganlarning bosmachi deya ta’qib qilinishi kabi voqealar asnosida Fitratning shaxsiyati, uning iztiroblari, qalb kechinmalari ochib beriladi. Ushbu o‘rinlarda yozuvchi o‘z uslubiga xos folklor an’analarini davom ettirib, quyidagi xalq qo‘shig‘i keltiradi: “Uying kuygir, bosmachi! Bosh bog‘lamay, o‘lsang-chi! Bosgan izing kuyadi...” [10;133]

Uchinchi qism “Muhabbatning saroyi” deb nomlangan. Uning bunday nomlanishi Cho‘lponning mashhur:

“Muhabbatning saroyi keng ekan, yo‘lni yo‘qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig‘ – bu xatarlik yo‘lda qotdim-ku...”

g‘azalining epigraf sifatida keltirilishi bilan izohlanadi.

Romanda bu kabi o‘rinlar ko‘p uchraydi. She’riy parchalardan foydalanish xalq dostonlarida bo‘lgani kabi liro-epik tasvir uyg‘unligini yuzaga keltirgan.

Uchinchi qismda Usmonning o‘g‘li Sobir haqidagi xotiralari, uning harbiy xizmat davridagi yozishmalari, xatlari mazmuni hikoya qilinadi. Sobir bilan yozishmalardan ma’lum bo‘ladiki, Rauf (Abdurauf Fitrat) – bu aslida Suqrotdir. Ikkala donishmand ham fitnachilar dastidan nohaq ayblanib, o‘limga hukm etilgan. Ikkalasi ham jazodan qutulib qolish uchun qochib ketishga imkon bo‘lsa-da, vatanini tark etmagan. Ikkisi ham zindonda uzoq vaqt o‘z o‘limini kutib yotishiga to‘g‘ri keladi.

Bolsheviklarning puch yolg‘onlariga aldanib, barcha uchun teng hayotning ta’minlanishi kutib yashab o‘tib ketgan insonlar qismati, ularning fojialarini yozuvchi folklorning maxsus turiga oid maqol-matallardan o‘rinli foydalanish orqali bayon qiladi. Masalan, “Bo‘linganni bo‘ri yer” maqolini qo‘llash bilan hamma bir xil hayotga intilishi, shuning uchun harakat qilishi kerakligi haqidagi sovetlar davri g‘oyasiga ishora qilinsa, jamiyat baribir boy bilan kambag‘al, och bilan to‘qqa ajralib qolganligini “Oy bilan etak yopib bo‘lmaydi” deya aytadi.

Romanda folklorga xos xalqona kinoya-pichinglar ham bor. “Oyni etak bilan yopish ham mumkin!” [10; 146] – deya kesatiq qiladi yozuvchi. Bu kinoya orqali ming yillardan beri davom etib kelayotgan an’ana va qadriyatlarning oyoqosti

qilinishini jamoatchilikdan yashirishga urinishlar, o‘zlari uchun to‘kis hayot yaratib olib, xalqning ko‘ziga ishchi-dehqon sifatida namoyon bo‘layotgan amaldorlarning qilmishlariga ishora qilinadi.

Roman va “Sirli tush” ertagida umumiyliklar ko‘p. Masalan, romanda qo‘llangan “Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga” [10; 149] naqli “Sirli tush”da ertak qahramoni Salomning qalandardan bir tilloga sotib olib, quduq tubida bahsga kirishgan ikki devga nisbatan qo‘llagan naqlidir [13; 79].

Butun umr Ruxsorani izlab, uni topganida Ruxsora ham quduq tubidagi kimsalar kabi Raufni topishga buyurishi, Raufni esa o‘g‘li Sobir orqali topishi natijasida Usmon beixtiyor o‘g‘li Sobirni “Aflotun” deb ataydi: “Sen avvaliga men uchungina Raufga qiziqayotgandek eding! Keyin (nechundir) sen (o‘zing) uni izlay boshlading! Va nihoyat... Bir kuni... (seni bilmagan kishi bunga ishonmaydi!) mendan g‘amgin ko‘yda:

“Rauf o‘limdan boshini saqlab qolishi, qochib qutulishining hech iloji yo‘qmidi, dada?!” – deb so‘ragandek bo‘lding. Men: “Rauf mamlakatdan chiqib ketishiga jazm etsa, otasi Abdurahim boy singari sarson-sargardon bo‘lmasdi. Bu yo‘lda hech kim unga xalal bergani qurbi yetmasdi. Imkoni bor edi. Yashab yuraverardi!” – dedim. Shunda sen, buni u istamagan, xolos. O‘ziga ep ko‘rmagan, unga bu chekinish, o‘z e’tiqodiga xiyonat bo‘lib tuyulgan, deding.

O‘ylanib turib, yana, uning uchun mutelikdan, o‘zligini yo‘qotishdan o‘lim afzal edi. U Suqrot edi, dada, deding...

Men senga tikilib, dong qotib qoldim!

(Aflotunmisan, bolam?!)

Rauf doimo axloqiy buzilishlar, ma’naviy yemirilishdan asranib, qo‘rqib yashaganini o‘zimcha tasavvur qilar, bilar edim! Lekin uning Suqrotga qanchalik yaqinligi... men yillar bo‘yi qidirib, topolmagan Raufni sen topgan eding!” [10; 155].

Asarning nega aynan “Aflotun” deb nomlanishi, unda Aflotun haqida deyarli hech nima deyilmaganligining sababi esa mana shu parchadan ayon bo‘ladi.

Romanning “Dunyo tasodiflarga to‘la” deb nomlangan qismida Usmon ertaklardagi kabi jumboqlarni yechishda davom etadi. Abduraufning qo‘lyozmalari saqlangan sirli sandiqni izlab yo‘lga chiqqan Usmon yana quduq orqali yer ostidagi shaharga boradi. Quduq xalq tafakkurida yer usti va yer osti olamlarini bog‘lab turuvchi folklor motividir.

Yer ostiga qilingan navbatdagi safarda shaharning qiyofasi oldingi qismdan farqli o‘laroq zulmat shahar emas, nurga to‘la charog‘on shahar sifatida tasvirlanadi. Undagi ko‘chalar, maydonlar zulmat shahardagi kabi kimsasiz emas, aksincha, odam bilan to‘la edi. Usmon sandiqchani u yerdagi odamlardan so‘rab-surishtirib boshlaydi: “Biz zarga qiziqmaymiz! – deyishdi Usmonga maydondagi odamlar. – Bir zamonlar shahardan tashqarida qaroqchilar tog‘ etaklariga, qaysidir daraxtlar ostiga

o‘zlari to‘plagan boyliklarini ko‘mishgan! Shunday gap yuradi, rostmi, yolg‘onmi, bizga ma’lum emas...” [10; 164]. Bu gaplar o‘quvchining xayolida arablarning mashhur “Alibobo va qirq qaroqchi” ertagi sujetini jonlantiradi [11; 144].

Yer ostida sirli sandiqni qidirib yurgan Usmonga noma’lum telefon qo‘ng‘irog‘i orqali tezda Toshkentga yetib kelishi zarurligining uqtirilishi o‘quvchini ertaklar olamidan real hayotga qaytaradi.

Xulosa. Mutolaa jarayonida romanning xalq og‘zaki ijodi an’analari bilan boyitilganligiga, folklor namunalarining asar sujetiga bir butun bo‘lib singib ketganligiga guvoh bo‘lamiz. Yozuvchining folklorga xos tasvir usulidan ustalik bilan foydalanishi uning boshqa ijodkorlarda uchramaydigan, o‘ziga xos individual uslubidan darak beradi.

Umuman olganda, ushbu o‘ziga xos uslub Omon Muxtorning boshqa asarlari, jumladan, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Ming bir qiyofa”, “Ffu” kabi romanlarida ham ko‘zga tashlanadi. Mazkur romanlarda va ko‘rib o‘tganimiz “Aflotun” romanida ham folklor an’analari, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan sermahsul foydalanish yozuvchi poetik uslubiga xos xususiyatlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurauf Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – B. 336.
2. Belinskiy V.G. Sobranie sochineniy. T.3. – Moskva: 1978. – S. 271.
3. Borxes X.L. Sochinenie v trex tomax. – M., 1994. – S. 608.
4. Doniyorova Sh. Omon Muxtor ijodida folklor an’analari. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent, 2001. №5. – B. 64.
5. Mo‘minov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiyotida folklorizm. Filol.fan.dok...dis.avtoref. – Toshkent, 1994. – B. 20.
6. Quronov D. “Adabiyot nadir” yoki Cho‘lponning mangu savoli. – Toshkent: Zarqalam, 2006. – B. 228.
7. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – Toshkent: Akademnashr, 2012. –B.14.
8. Sharipova L. She’riyat va folklor. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 48.
9. Sharipova L. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyati badiiy taraqqiyotida folklor. – Toshkent, f.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati, 2019. – B. 23.
10. Omon Muxtor. Tanlangan asarlar. Aflotun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 100.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 5-jild, 2006. – B. 13.
12. Sirli tush. O‘zbek xalq ertaklari turkumi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 75.

13. Uch og‘ayni botirlar. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 194.

14. Alibobo va qirq qaroqchi: ertaklar. / Arab xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 144.

15. https://jdpu.uz/mustaqillik-davri-ozbek-roman%D1%87iligi-badiiy-va-ilmiy-tafakkur-masalalari/. 11.05.2023.